

IPAK YO'LI MULOQAT YO'LI

Madolimova Muhabbat Farxodjonovna

*Chust tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 21-sonli umumta'lim maktabi
o'qituvchisi.*

Anottatsiya: *mazkur maqolada qadimiy va buyuk ipak yo'li haqida so'z boradi va ushbu ipak yo'li ta'sirida rivojlangan madaniyat almashinuvi, muloqot haqida atroflicha yondashilib, ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan, Xitoy, Sharq*

Kalit so'zlar: *Ipak yo'li, muloqot, Yevropa, So'g'diyona,*

Buyuk ipak yo'li nafaqat savdo, balki diplomatiya va madaniy munosabatlar yo'lidir. Turli davrlarda mazkur yo'l orqali xitoy elchilari va budda rohiblari dastlab Turkiston shaharlariga kelgan, so'ngra boshqa mamlakatlarga borgan. G'arb elchilari va missionerlari Turkiston mintaqasi orqali Xitoyga, Koreya va Yaponiyaga yo'l olgan. VIII asrdan boshlab ushbu yo'ldan islom targ'ibotchilari Sharqqa qarab yurgan. Xitoy elchisi va sayyohi Chjang Chyan Fargo'naga borishi bilan xitoylar uchun Markaziy Osiyo davlatlariga boradigan yo'l ochildi. Mazkur elchigacha bo'lgan uzoq vaqt davomida esa Qadimgi Xitoy bilan G'arbiy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdo aloqalariga, asosan, Markaziy Osiyo xalqlari vositachilik qilgan.

Buyuk Ipak yo'lining uzunligi 12000 km bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li miloddan avvalgi II asrda ochildi. Bu yo'l faqat savdo yo'li emas edi. U dunyo xalqlari o'rtasida madaniy hamda davlatlararo aloqalar yo'li sifatida ham xizmat qildi. Yo'l Xitoyning Xuanxe daryosi bo'yida joylashgan Sian shahridan boshlanib, ikki yo'nalishli bo'lgan.

Birinchi yo'nalish - Xitoydan Samarqandgacha bo'lgan yo'nalish edi. Samarqandda yo'l yana ikkiga bo'lingan:

Biri Eron orqali O'rtayer dengizigacha, ikkinchisi Shimoliy Kavkaz orqali Qora dengizgacha yetib borgan. Ikkinchi yo'nalish Xitoydan boshlanib, Pomir - Tyan-Shan tog' tizmalaridan o'tib, Afg'onistonga, undan Hindistonga olib chiqqan.

"Buyuk" so'zi yo'lning juda uzun bo'lganligini hamda juda ko'p xalqlar taqdiriga aloqador bo'lganligini anglatadi, "ipak" so'zi esa yo'lning, asosan, ipak savdosiga xizmat qilganligini bildiradi.

Ipak mahsulotlari Yevropa xalqlarini juda maftun etgan. U zamonlarda Yevropa ipak nimaligini bilmagan. Bizning bobolarimiz va xitoyliklar ipakdan ajoyib matolar to'qiganlar. Bu matolar Yevropaliklarni lol qoldirgan. Ba'zi yozma manbalarda yozilishicha, hatto bir vaqtlar ipak mato o'rami pul o'rnida ham ishlatilgan. Buyuk



Ipak yo'li qaysi davlat hududidan o'tgan bo'lsa,shu davlat hukmdorlari yo'l yoqasidagi bekatlar, karvonsaroylar qudirganlar. Yo'lning xavfsiz bo'lishi choralari ko'rganlar.

Buyk ipak yo'lining Sharqiy Turkiston qismini nazorat qilib turgan Uyg'ur xoqonligi 755-757-yillari Xitoyda yuz bergan An Lushan qo'zg'alinini bostirishda Tan sulolasiga ko'maklashganligi tufayli ushbu mamlkatda erkin savdo qilish hoge ega bo'lgan.Shunig uchun Xitoydan Buyuk ipak yo'li orqali eksport qilingan choy uyg'urlar ixtiyorida bo'lgan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra milodning boshlar va undan oldingi davrda "Cha"deb nomlangan o'simlik Xitoyliklarga malam bo'lgan, ammo ular bu o'simlikdan chaqoqbosdi bilmaganlar.Miloddan avvalgi III asrda ichimlik Xitoyda choy barglaridan ichim tayyorlangan va u xufyona iste'mol qilingan.,choyning yosh barglaridan chan ichimlik damlab olish odati esa IV asrning 1-yarmida paydo bo'lgan.Shundan keying II asr davomida choy damlamasi iste'mol qilish mahalliy xalq orasida keng tarqalgan..Demak,choy Turkistonda V asrdan oldin tarqalmagan Choy Yaponiya v Koreyada IX asrda XIX asrdan Indoneziya, Hindiston,Shri-Lankada ekila boshladi. 1885-yildan Gruziyada, 1901-yildan Rossiyaning Krasnodar o'lkanda 1912- yildan Ozarbayjonda choy plantatsiyalari tashkil topdi. O'zbekistonda hindi savdogarlari olib kelgan. XX asr boshlarida hind savdogarlari Samarqandda choy qadoqlash korxonasini tashkil etganlar.1913-yil da O'rta osiyoga chetdan 720 ming pud choy keltirilgan (75% ko'k choy),uning 240 ming pudi Turkiston o'lkasida, 150 ming pudi Buxoro xonligida,,40 ming pudi Xiva xonligida sotilgan. 1923-yil O'rta Osiyoda yagona va chetdan keltirilgan xom-ashyoga ishlaydigan Samarqand choy qadoqlash fabrikasi ishga tushirildi.Buyuk ipak yo'li orqali Yevropa, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyodan Xitoyga sabzavotlar va ko'kat urug'lari ham olib borilgan.

O'sha davrda So'g'diyonadan Xitoyga jun, gazlama gilam zeb-ziynat buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan:Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan zotli otlar Badaxshondan la'l O'rta Osiyo viloyatlaridan Xitoyga uzum yong'oq,anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari yetkazilgan. Hindistondan O'rta osiyo viloyatlariga ip gazlama va paxta chigiti ortilgan karvonlar kelgan Xitoydan esa guruch ipak matolar keltirilgan.Bu esa rvojanish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Natijada savdo-sotiq rivojlangan. Xalqlar o'rtasida madaniyat almashinuvi bo'lgan.Ipak yo'li har soha rivojlanish uchun xizmat qilgan.

Chunki bu yo'l tufayli shu davlatning ham savdo-sotiq ishlar rivojlangan. Qolaversa, savdo karvonlarining egalari boj ham to'laganlar.Bu esa davlat xazinasiga katta daromad keltirgan Buyuk ipak yo'luga fanga XIXasrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Firdinant Fon Rixtgofen tomonidan kiritildi.Unga





qadar bu yo'l "G'arbiy meridional yo'l" deb atalar edi. Yuqorida qadimiy savdo yo'li haqida gap yuritilganda, Buyuk ipak yo'li bir necha ming yillik tarixga ega ekanligi va elchi Chjang Chyan Farg'onaga borishi bilan Xitoylar uchun Markaziy Osiyo davlatlariga boradigan yo'l ochilganligi haqida aytib o'tilgan edi. Mazkur elchigacha bo'lgan uzoq davr davomida esa Xitoy bilan G'arbiy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdo aloqalari asosan Markaziy Osiyo qadimgi Xitoyning poytaxti Chan'an, Loyang kabi shaharlarda va ularning atrofidagi viloyatlarda hamda chegara yaqinidagi yerlarda joylashib, savdo-sotiq qilishgan, ayrimlari savdogarlarga xizmat ko'rsatish va o'zlarining diniy e'tiqodini targ'ib qilish bilan shug'ullanishgan. Bunga yuqorida aytilgan 2000 yil avgust oyida Xitoy Xalq Respublikasiga Buyuk ipak yo'lining o'tmishi va hozirgi holatini o'rganish uchun uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya davrida ko'rganlarimiz va o'qiganlarimiz asosida amin bo'ldik. Buyuk ipak yo'lining tarixi Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosdagi madaniy aloqalari va savdo ayrboshlash tarixidir. Bu o'zaro hamkorlik madaniyatlar boyitilishi tarixi bo'lib, tinchlik va taraqqiyot asosini tashkil etgan. Va O'rta Osiyo bu yo'lining asosiy kesib o'tadigan markazida joylashgan. Bu yerga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar, va musiqachilar tashrif buyurar edi.


O'zbekistonda Buyuk ipak yo'lini tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda. 1995 yil 2-iyunda "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risidagi "farmoni e'lon qilindi. Shu asosda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi "Ipak yo'li O'tgan tarixiy manzillar bo'ylab 200 dan ortiq yo'nalishlar ishlab chiqdi. Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent Samarqand Buxoro. Xiva hamda Farg'ona vodiysi shaharlari bo'ylab o'tadi. Ipak yo'lining ahamiyati dunyo xalqlarining rivojlanishiga juda katta xizmat qilgan. Nafaqat sav do-sotiq ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy madaniy aloqlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Xalqlar o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni o'rnatgan, rivojlantirgan, hududlar o'rtasidagi o'zoro aloqalarni mustahkamlanishiga olib kelgan.

Bu jarayonlarning barchasi dunyo xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, do'stlik, hamkorlik, hamjihatlik, birdamlikni shakllantiradi. Tarixni o'rganib, to'g'ri xulosa chiqarib, vatan taraqqiyoti yo'lga kelajak avlod uchun yangi zamonaviy yo'llarni barpo etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy Ensklopediyasi I jild. Toshkent 2005. 814-bet



- 
2. O'zbekiston tarixi-R.H.Murtozoyev.Toshkent.2005.96-101-bet.
 3. Buyuk ipak yo'li-A.Xo'jayev.Toshkent.2007/146-bet
 4. Shi-Ji (Tarixiy xotiralar)-Sima Yan,Sima Chyan. 130 bob/17-bob;54-bet.
 5. Xan-Shu (Xan sulolasi tarixi)-Ban Gu.200 bob/67-bob:67-75-bet.
 6. Qadimgidavr Iqism) B.Boymenov,U.Shoimov.F.Bozorboyev,F.Sultonov, Sh.Yod gorov, Toshkent/2006. 149-150-bet
 7. Vatan tarixi-R.Shamsuddinov, Sh.Karimov,Toshkent 2010./89-90-bet
 8. O'zbekiston tarixi: jild (eng qadimgi davr-XIX asr o'rtalarigacha) Toshkent:20014./163-bet.
 9. Tangday sichou chjilu yuy Chjungya lishi dili yanjyu (Qadimgi ipak yo'li va Markaziy Osiyo Tarixiy geografiyasiga doir tadqiqotlar)-Shyuy Shyuan
 10. Buyukipak yo'lidagiFarg'onashaharlariB.X.Matboboyev.R.T.Shamsuddinov,

A.

